

## **YANGILANGAN KONSTITUTSIYAVIY TA'LIM**

**Iroda Bekimbetova Zokir qizi**

*Berdaq nomidagi Qoraqalpoq Davlat Universiteti*

*Yurisprudensiya yo'nalishi talabasi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Yangilangan konstitutsiyamizda ta'lism tizimiga oid yangi kiritilgan normalar tasnifi, ularning Yangi O'zbekistonda tutgan o'rni va roli, yosh va barkamol avlod tarbiyasidagi ahamiyati hamda yoshlarga yaratib berilayotgan keng imkoniyatlar haqida so'z yuritiladi.

**Kalit so'zlar:** konseptual o'zgarish, ijtimoiy davlat, o'qituvchi va murabbiylar maqomi.

*Yangi istiqlol va taraqqiyot yo'lidan borar ekanmiz  
ushbu yo'ldagi asosiy tayanch va tirdagimiz ta'lism tizimidir.*

**Muhtaram Prezidentimiz**

Shavkat Mirziyoyev O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga qilgan murojaatnomasidagi ushbu so'zlar fikrimizni tasdiqlaydi: "Ta'lism sifatini oshirish Yangi O'zbekiston taraqqiyotining yakka-yu yagona va to'g'ri yo'lidir. "O'zbekiston demokratik huquqiy davlat qurish yo'lini davom ettirish, fuqarolik jamiyati asoslarini mustahkamlash borasida jadal rivojlanish bosqichidan bormoqda. Xususan, konstitutsiyamizga kirgan normalarning kengayganligi bizga-butun O'zbekiston xalqiga keng imkoniyatlar eshigini ochib berdi, barcha jabhalarning izchil rivojlanishi uchun huquqiy asoslar yana bir bora mustahkamlandi. Yoslarga berilgan imkoniyatlardan eng kattasi esa ta'lism sohasidagi islohotlar, ta'lism tizimidagi normalarning ortganligidadir.

Butun dunyo tizimda bo'lib o'tayotgan islohotlar, turli xil madaniy, siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar O'zbekistonni ham chetlab o'tgani yo'q. Jumladan, mamlakat boshqaruv tizimini takomillashtirish, aholining turmush sharoitini yanada yaxshilash, adolatli huquqiy demokratik jamiyat barpo etish, ularning huquqiy asoslarini yanada takomillashtirish zarurligi Konstitutsiyamizdagi normalar ko'lамини kengaytirishga sabab bo'ldi. Ushbu Konstitutsiyamizga kelib tushgan takliflarga keladigan bo'lsak, 222 715 ta takliflarning yoshlar tomonidan berilishi ularning davlat kelajagiga befarq emasligi, ularning davlat va jamiyat hayotida munosib kuch bo'lib mustahkamlanib borayotganidan dalolat beradi.

Yosh avlodni tarbiyalash, ularni davlat va yurtning tirdagiga aylantirishda ta'lism tiziminining o'rni katta. Ushbu sohadagi normalarning ortishi bu tizimning naqadar ahamiyatliligidan dalolat beradi. "Davlat uzlusiz ta'lism tizimi, uning har xil turlari va shakkiali, davlat va nodavlat ta'lism tashkilotlari rivojlanishini ta'minlaydi" deyiladi Konstitutsiyamizning 50-moddasida. Bu normada iste'dodli yoshlarning moddiy ahvolidan qat'i nazar ta'lism olishlarini davom etttishlarini davlat o'z zimmasiga olayotganligini belgilangan. Ma'lumki, yangi konstitutsiyada konseptual o'zgarish yasagan normalardan biri - mamlakatimizni "ijtimoiy davlat" deb e'lon qilinganligidir. Ushbu norma davlat

iste'dodli yoshlarni keng, jumladan moddiy ahvolidan qat'i nazar,qo'llab-quvvatlashni nazarda tutadi.Keyingi vaqtarda mamlakatimizda bu borada qator ijobiy ishlar amalgam shirib kelinmoqda. Yurtimizda keng o'tkazilayotgan "Yosh kitobxon" va "Zakovat"tanlovlari,iste'dodli yoshlarni qo'llab-quvvatlash uchun "Ulug'bek" jamg'armasi hamda iqtidorli yoshlarning xorijiy nufuzli ta'lim muassasalarida tahsil olishlarini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan "El-yurt umidi" jamg'armalari faoliyatining davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanyotganligi shular jumlasidandir.Ma'lumki, keyingi yillarda mulkchilik shakli turlicha bo'lgan oliy ta'lim muassasalari ko'payib bormoqda.Ayrim xususiy ta'lim muassasalari ta'lim berish sifatiga ko'ra mamlakatimizning otaxon universitetlarini ham ortda qoldira boshladi. Yoshlarning ushbu muassasalarda tahsil olishlari esa, iste'dodlarining yanada sayqallanishiga olib keladi.Konstitutsiyamiz esa yoshlarni eng yaxshi ta'lim muassasalarida,u xoh xususiy bo'lsin, xoh davlatniki,ta'limni davom ettirishlari uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Sog'lom-baquvvat yoshlarni o'qitish,ularga ta'lim-tarbiya berish,balki nogironligi bor bolalarga ham o'z tengdoshlari bilan bir xil ta'lim olishi uchun sharoitlar yaratish tizimini rivojlantirish uchun inklyuziv ta'lim tushunchasi kiritildi.Bu esa nuqsoni bor bolalarning jamiyat to'laqonli a'zosi sifatida kamol topishi uchun yaratilayotgan imkoniyatlarning biridir va bu davlat oldiga qo'yilgan eng muhum ijtimoiy vazifalar qatoridan joy olgani Yangi O'zbekistonning asosiy maqsadi O'zbekiston aholisini xoh u sog'lom bo'lsin,xoh nogiron jamiyatning eng muhim bo'lagiga aylantirish ekanligini anglatadi.

Keyingi 51-moddada biz yoshlarning oliy ta'lim muassasalarida o'qishimizda davlat hisobidan grant asosida tahsil olish huquqimiz kafolatlab qo'yildi.Ma'lumot o'rnida aytadigan bo'lsak,2017-yilga qadar oliy ta'lim uchun grantlar soni qisqaganligi,so'nggi 5-6 yil ichida bu ko'rsatkich keskin oshganligi ko'rishimiz mumkin.Grantlar soni 2 marta oshib,40 mingtaga yetdi.Magistratura uchun esa 5 barobar ko'payganligi ta'lim olishimiz uchun islohotlaring jadal kechayotganligining isbotidir.Oliy ta'lim tashkilotlariga akademik erkinlik,o'zini o'zi boshqarish,o'qitish erkinligi berilmoxda.Bu esa ularning o'qitish tizimida yangi jahon tajribalaridan keng miqyosda foydalanish,yoshlar uchun zarur va zamonaviy bilimlarni berishda moliyaviy va tadqiqotlar o'tkazish huquqlarini yaratib berdi.

Ta'lim sohasidagi eng katta o'zgarish va yangiliklardan biri-o'qituvchi va murabbiylarning maqomi konstitutsiyaviy normalar yordamida mustahkamlanganligi bo'ldi.Prezidentimiz qalbi pok,yosh avlodga jonini ayamasdan kun-u tun xizmat qilishdan also tolmaydigan ustozlarimizning o'rnini to'g'ri baholay oldi va ularning huquqlari,erkinliklarini yanada mustahkamlash,qadr-qimmati va sha'nilarini himoya qilish uchun ularga alohida modda kiritganligi ahamiyatga molik hodisalardan biri bo'ldi.Yosh avlodni millat tayanchi der ekanmiz,ularni aynan tayanch va tirgak bo'lishida,sobit va bardam turishida ustozlarimizning o'mni benihoya kattadir.Sababi,bola shaxs sifatida shakllanar ekan,avvalo,atrof-muhitni,ona Vatanini ona suti, so'ngra esa unga inson bo'lish yo'lini ko'rsatgan ustozlari bergan ilmlari ila taniydi.Xalqning ma'nnaviy va madaniy salohiyatini oshirish,yoshlarni baland,yuqori cho'qqilarga olib chiqishda aynan ustoz va murabbiylar xizmatlari nihoyatda yuksak va ma'suliyatlidir.

Yangi konstitutsiyaviy ta'lim biz yoshlarga yangi imkoniyatlar eshigini olib berdi.Biz uchun muhim bo'lgan ta'lim tizimini takomillashtirdi,yangidan yangi erkinliklar va islohotlar nafaqat ta'lim tizimida,balki qaysi sohani olmaylik,o'zining ijobiylar samarali natijasini berib kelmoqda.Yangi va ildam qadamlar ila rivojlanib borayotgan O'zbekistonning eng katta yutug'i ham shudir aslida.Yangi konstitutsiyaviy ta'lim zamon talablariga xos va mos tarzda ishlab chiqildi va yaqin yillar oralig'ida o'zining samarasini,natijasini beradi va yuksak marralar sari yetaklaydi desak hech ham xato bo'lmaydi.Chunki har bir millat va davlatning obro'si,xalqlar o'rtaсидаги о'rni uni rivojlanish yo'lidan olib borishga shay va tayyor,bilimli,komil,jismonan va ma'nан yetuk yoshlar bilan o'lchanadi.Buning uchun esa bizda hamma sharoitlar bor va mujassamdir.Bizdan esa yaratib berilayotgan imkoniyatlardan to'g'ri va oqilana foydalanish,bilimga chanqoq bo'lish talab etiladi ,xolos.Shunday ekan,aziz yoshlar,vaqtimizni behuda sovurmasdan yaratilgan imkoniyatlardan unumli foydalanaylik.Davlatimiz nomini,yurtimiz bayrog'ini yuksaklarga ko'tarishni biz eng asosiy burchimiz sifatida bilamiz va bizga shunday imkoniyatlar yaratayotgan Yangi O'zbekiston, bosh qomusimiz- konstitutsiyamiz bilan biz cheksiz faxrlanamiz!!!

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

- 1.O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 2023
2. [inscience.uz/index.php/socinov/article/view/406](http://inscience.uz/index.php/socinov/article/view/406)
- 3.O'zbekiston milliy ensiklopediyasi (2000-2005)
- 4.O'zMU Axborot xizmati